



ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2026-yil 20-iyun

55-1-24-F/26

Marhamat tumani hokimligi

30-iyun – “Yoshlar kuni” munosabati bilan Marhamat tumanida gala-konsert o‘tkazish to‘g‘risida

Marhamat tumanida 30-iyun – “Yoshlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan gala-konsert davomida fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, favqulodda holatlarni va yong‘in xavfsizligini oldini olish maqsadida:

1. Tumanda “Yoshlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan gala-konsertni ko‘tarinki ruhda tashkil etish, konsert o‘tkazish davrida fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, favqulodda holatlarni va yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha korxonalar va tashkilotlar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari vakillari va keng jamoatchilik takliflari inobatga olinsin.

2. “Yoshlar kuni” munosabati bilan tuman gala-konserti 2026-yil 24-iyun kuni tumandagi markaziy o‘yingohda kechki soat 19:00 dan 22:00 ga qadar o‘tkazilsin.

3. Tuman IIB (Jaloldinov) hamda tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (Obidjonov) birgalikda:

– hududdagi ko‘chalarda harakat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida zaruratga ko‘ra asosiy tadbir o‘tkaziladigan kuni soat 16:00 dan 22:00 ga qadar Marhamat tumani “O‘zbekiston” mahalla fuqarolari yig‘ini hududidan kesib o‘tuvchi D-140 raqamli Shahrixon – Asaka – Marhamat – Qirg‘iziston Respublikasi chegarasi avtomobil yo‘lining Mustaqillik, Al-Buxoriy ko‘chalaridan Mustaqillik, Buyuk Turon ko‘chalarigacha bo‘lgan oraliq masofasi gala-konsert munosabati bilan yopilishi lozimligi sababli avtotransportlarning harakati cheklanishini nazoratga olsinlar (Tez tibbiy yordam, yong‘in xavfsizligi avtotransportlari bundan mustasno).

4. Tuman madaniyat bo‘limi (Mirzayeva):

– tuman markaziy o‘yingohida bo‘lib o‘tadigan gala-konsert namoyishi uchun tadbirning dasturi va ssenariysini yuqori saviyada va puxta tayyorlash;

– bayram dasturini yoshlarga chinakam bayram kayfiyati beradigan ruhda, uzoq vaqt davomida ular yodida ijobiy saqlanib qoladigan darajada tashkillashtirish;

– tadbirga madaniyat bo‘limi tasarrufidagi badiiy jamoalar, bolalar musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilari hamda o‘quvchilarini keng jalb etish;

– tuman bayram tadbirini o‘tkazishda ishtirok etuvchi san’atkorlar guruhi talabiga muvofiq ishlatiladigan jihozlar va sahna liboslari, shuningdek, yoritish va ovoz kuchaytirish uskunalari hamda boshqa anjomlar bilan ta’minlash choralari ko‘rsin.

5. Tuman tibbiyot birlashmasi (Allamatov), tuman snitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi (Abdurahmonova)lar mazkur o‘tkaziladigan gala-konsertda tegishli hududni tez tibbiy yordam vositalari bilan ta’minlab, sanitariya holatini nazorat qilsinlar.

6. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Jaloldinov), favqulodda vaziyatlar tuman bo‘limi (Xudoyberganov)lar:

– asosiy e’tiborni xavfsizlik masalasiga qaratish, gala-konsert dasturi namoyish etiladigan va aholi gavjum joylarda turli pirotexnika vositalarini ishlatmaslik ustidan nazoratni ta’minlash;

– 2026-yil 24-iyun kuni gala-konsert o‘tkaziladigan hududda yong‘in xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash, mazkur maskanlarga bolalarni tashkiliy tarzda olib kelish va olib ketishda harakat xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rsinlar.

7. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Nabiyev) fuqarolarning kayfiyatini ko‘tarish maqsadida ko‘chlarni bayramona bezash, manzarali daraxtlarga shakl berish, bayram o‘tkazilayotgan hududlarning tozaligini saqlash choralari ko‘rsin.

8. Tuman hokimining matbuot kotibi (Jo‘rayeva) ommaviy axborot vositalarida 30-iyun – “Yoshlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan gala-konsert e’loni va jarayonlarini keng yoritib borsin.

9. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari Sh.Abdurazzaqov, A.Maxamatov va D.Ismoilov zimmalariga yuklatilsin.

**Marhamat tumani
hokimi**



I.Umrzaqov

